

BOLALAR ADABIYOTIDA KECHA VA BUGUN

Yarashboyeva Shaxzoda Umidbek qizi

ToshDO‘TAU O‘FF 2-kurs talabasi

yarashboyevashaxzoda8@gmail.com+99899552 00 13

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kun bolalar adabiyotining og‘riqli nuqtalari yuzasida to‘xtalib o‘tilgan. Sohadagi muommlarning asl sabablari haqida fikr yuritilgan. Durposhsho Hudoynazarova she‘rlaridan tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Bolalar adabiyoti, yangi usul, samimiylik, Yanush Korchak Durposhsho Hudoynazarova

Abstract: This article focuses on the painful points of today's children's literature, and also reflects the opinions of our poets and writers who are currently working on children's literature. The poems of Zafar Diyar, Erpolat Bakht, and Dilshad Rajab were analyzed.

Key words: Children's literature, new method, sincerity, Yanush Korchak, Durposhsho Hudoynazarova

Qurilayotgan uyni uning poydevorisiz tasavvur qilolmaganimizdek, adabiyot rivojini ham Bolalar adabiyotisiz tasavvur qilish imkonsizdir. Chunki o‘tib borayotgan avlodni bolalik davridan ma‘naviy ozuqa sanalmish kitob bilan oziqlantirmasak, keyinchalik ham uning qalbida kitobga, adabiyotga bo‘lgan mehrni uyg‘otish mushkul. Shunday ekan murg‘ak qalb sohib va sohibalari endi harf tanishni boshlagan onlarida ularning ruhiyatini adabiyot bilan sug‘orish lozim. Chunki Bolalar adabiyoti adabiyotning boshlanmasi va umumkitobxonlikning ostonasi hisoblanadi. Dono ajdodlarimiz asarlar yaratish davomida Bolalar adabiyotini chetlab o‘tmaganliklari ham fikrimizning isboti desak adashmagan bo‘lamiz. Masalan, Alisher Navoiyning yirik hajmli asarlaridan biri bo‘lgan “Hamsa”sidan bolalar adabiyotiga oid asar joy olganini Hayrat ul- Abror dostoni orqali ko‘rishimiz mukun.

Bolalar adabiyotining shakllanishi deyarli barcha xalqlarda asosan ma‘rifatparvarlik va maktab-maorif tizimi islohotlari bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbek Bolalar adabiyotining barqarorlashuvi ham 19-asr 2-yarmi – 20-asr boshlaridagi ma‘rifatparvarlik harakatiga borib taqaladi. Saidrasul Aziziy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy va boshqa o‘nlab ma‘rifatparvarlarning „Yangi usul“ („usuli jadidiya“)dagi o‘zbek maktablari talabalari uchun yaratgan ellikka yaqin alifbo va o‘qish kitoblari o‘zbek Bolalar adabiyotining tom ma‘nodagi yorqin namunalari hisoblanadi. Ammo 21-asr, texnologiyalar taraqqiy etgan asr farzandlarini adabiyotga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish uchun saviyali, yozuvchi-shoirlarimiz tomonidan mahorat bilan yaratilgan asarlar talab etiladi.

Og’riqli tarafi shundaki, bugungi kunda Bolalar adabiyoti borgan sari susayib bormoqda. Bu holatni bir so’z bilan “Chuqur uyqudagi Bolalar adabiyoti” deyish mumkin.

Bolalar adabiyotidagi muommolar, bu millat muommosidir va ushbu muommo ancha avvaldan boshlanib, bugungi kungacha davom etib kelmoqda. Muommo boshlanishining asosiy sababi esa, Bolalar adabiyotiga past nazar bilan qaralishi va sohadagi kashfiyotlarning kamligidadir. Fikrimizning dalili sifatida hozirda aynan Bolalar adabiyoti namunalari chop etishga ixtisoslashtirilgan nashriyotlar yo’q ekanini aytishimiz mumkin. Bugungi kun o’quvchisi yoki maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchisining estetik didiga, estetik talabiga mos asarlarning miqdor jihatdan kam ekanligi ularning asarlar bilan tanishishga bo’lgan qiziqishlarini ma’lum ma’noda yo’qqa chiqarmoqda. Muqova fusunkor bo’lishi kitobxonni o’ziga jalb qilishi mumkin, biroq unga ma’naviy ozuqa bera olmaydi. Chunonchi, millat farzandlari “ayiq, asal va asalarilar” haqida siyiqasi chiqqan fikrlarni takror eshitishdan charchashdi.

Maktab va bog’cha yoshidagi bolalarning ichki olami nihoyatda boy. Ular hali ko’p narsani bilmasa-da, lekin bilishdan iborat ma’naviy ehtiyoj jarayonini boshdan kechiradi. Kitobxonning istaklari yangiliklar va adabiyotdagi yangi topilmalar tomon chorlagan bir paytda, yozuvchi-shoirimiz tomonidan ularning xohishlarini qondira oluvchi asarlarning yetkazib berolmasliklaridan achinarlisi yo’q albatta.

Yaqinda e’lon qilingan xalqaro savodxonlik reytingida o’zbekistonlik o’quvchilar 49-o’rinni egalladi. Eng achinarlisi bu natija Afrikaning ayrim davlatlari bilan bir xil. Ushbu holat yuzasidan chuqur izlanish olib borilsa, muommo yana borib kitobxonlikka taqaladi. Chunki ma’naviy bilim har sohada insonga uchun zarurdir, go’yoki tuproqni endi yorib chiqayotgan maysaga suv qanchalik zarur bo’lsa adabiyot ham insoniyatga shunchalik darkor. Qaysi sohada bo’lsa ham ma’nan kambag’al inson yo’lida qoqiladi.

Bolalar adabiyotida ijod qilish yozuvchidan bolalarcha qalb talab qiladi. O’zining sof, boshqalardan ajralib turadigan dunyosiga ega shoir va nosirlargina sohaga oid saviyali va ommabop asarlar yarata oladi. Chunki, Bolalar adabiyotidagi asarlar shu qadar qiziqarli bo’lishi talab etildiki, asar katta yoshdagi insonlarda ham qiziqish uyg’ota olsin.

“Bolalarga o’zlari sezgan va o’ylaganlarini gapirib berish g’oyat qiyin, chunki ularni so’zda ifodalashga to’g’ri keladi. – Bundan ham og’irrog’i esa yozish. ...lekin bolalar shoir va faylasufdirlar”, – deb yozgan edi Yanush Korchak taxallusi bilan butun dunyoga tanilgan polyak adibi Genrika Goldshmit. Chindan ham shunday. Bolalar tabiatidagi “shoirlik”– ularning hamma narsadan hayratlanishlari, har bir hodisadan hayajonlanishlari bo’lsa, “faylasuflik”– hayratni va hayajonni qo’zg’agan shu narsalar va hodisalarning asl mohiyatiga qiziqishlaridir.

Shunday ekan Bolalar adabiyotiga doir arzirli asarlar yaratish katta mas’uliyat va ulkan ixlos talab etadi. Buning uddasidan chiqayotgan yozuvchilarimiz bugungi kunda kam sonli bo’lsada, yo’q emas. Kavsar Turdiyeva, Abdusaid Ko’chimov, Dilshod Rajab, Durposhsho Hudoynazarova, Erpo’lat Baxt kabi yozuvchi-shoirilarimizni zamonasining zabardast vakillari va o’z sohasining ko’zga ko’ringan namoyondalaridan bo’lgan Tursunboy Adashboyev, Quddus Muhammadiy, Safar Barnoyev, Shukur Sadulla, Po’lat Mo’min, Anvar Obidjon, Zafar Diyor kabi adiblarimiz davomchilari desak adashmaymiz. Lekin bu ro’yxat millat farzandlari uchun kamlik qiladi. Chunki biz sal kam 40 million aholimiz va bolajonlarimiz bo’sh vaqtini qo’ldan boy bermasligimiz lozim.

Bolalar uchun asar yozishda yozuvchining ruhiyati sof va samimiy bo’lmog’i darkor. Ana shunday sof va samimiy ruhiyat sohibasi, O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi Durposhsho Hudoynazarovanning 2023-yili “Xorazm Yoshlari” nashriyot-matbaa uyi tomonidan “Vitaminli kino” nomi ostida chop etilgan she’riy to’plamidagi ijod namunalariga nazar tashlaydigan bo’lsak, ustoz ushbu kitobga sayqal bermoq uchun mahurat bilan yondashganliklarini to’plamdan joy olgan she’rlardan yaqqol sezilib turadi. Ushbu kitobdagi she’rlar turli xil mavzularni: xususan, qushlar, o’simliklar, xayvonlar haqida va shu bilan bir qatorda bolajonlarga pand nasixat bo’la oladigan, ularni to’g’ri yo’lga chorlay oladigan ijtimoiy masalalarga doir mavzularni qamrab oladi. Shoiraning “Yalmog’iz” deb nomlangan she’riga diqqat qilsak:

– Kim tug‘gan yalmog‘izni,
Bormi ota-onasi?
Rostdan ham u yolg‘izmi,
Yo‘qmi hech dugonasi?

– To‘g‘risin aytsam sizga,
O‘sib yurgan tirnog‘i.
Shu sabab yalmog‘izga
Aylanib qolgan chog‘i.

Ushbu misralar orqali yozuvchi bolajonlarning eshitgan sayin eshitgisi keladigan hikoya va ertalkarining qahramoni yalmog’iz obrazi orqali tozalikka, ozodalikka chorlamoqda. Yalmog’iz har bitta bolakay hayolida yomon obraz sifatida shakllangan. Shunday ekan bu she’rni o’qigan har bir o’g’il-qiz “yalmog’izga aylanib qolmaslikka” harakat qiladi, o’zini pok va ozoda tutadi. Chunki dinimizda ham tirnoq poklikni to’suvchi illatlardandir deb qaralgan.

VITAMINLI KINO

– Tayyorladim sen uchun

Vitaminga boy ovqat.
Ko‘paysin, o‘g‘lim, kuching
Qoldirmay yegin faqat.
Bo‘lib bir kun chempion,
Yoshlab onang qarog‘in,
– Ko‘tarasan jahonda
O‘zbekiston bayrog‘in.

– Mayli, har bir so‘zingiz
Qulog‘imga ilaman.
Buyursangiz ham yumush,
G‘ing demasdan qilaman.

Yodlab oldim, bilsangiz,
«Aqlvoy» ni, «Dino»ni.
Ko‘ray, ruxsat bersangiz,
Vitaminli kinoni.

Ustozning ushbu she‘rlarida ham yosh kitobsevar uchun o‘zgacha topindi bor. Zamonaviylik va milliylikning uyg‘unlashuvi natijasida yaratilgan estetik she‘rda bugungi kunda bolajonlarning fikru-hayollarini o‘g‘irlyotgan, ularni har ishdan chalg‘itayotgan multfilmlar haqida gap boradi va onaning chiroyli ohangda, o‘rinli qilib aytilgan o‘gitlari orqali bolaga muloyim yetkaziladi.

“Vitaminli kino” kitobini varaqlar ekansiz, garchi katta yoshda bo‘lsangiz ham” o‘zgacha ma‘no tuyasiz, qiziqishingiz ortib kitobni takror-takor o‘qib, kayfiyatingizni ko‘taringiz keladi.

Bu kabi qiziqarli va foydali kitoblar ko‘payishi uchun Bolalar adabiyotiga bo‘lgan e‘tiborni yuksaltirishimiz lozim. Buning uchun chet el tajribalaridan ham foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, Bolalar adabiyotini rivojlantirishda, yanada takomillashtirishda faqat bolalar nutqiga ixtisoslashtirilgan lug‘at yaratilishi kerak va yozuvchilarga taqdim qilinishi kerak. Chunki bolaning ko‘ngliga kattalar uchun mo‘ljallangan chuqur ma‘noli so‘zlar bilan kirish mushkul. Unga tushunmagan har qanday o‘quvchi asarni chetlab o‘tadi. Murg‘ak qalbga kirmoq uchun soddagina so‘zlar kifoya. Faqat ular o‘z o‘rniga qo‘yib ifodalanmog‘i zarur. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz lozimki, har bir millat adabiyotini yuksalishi va yoki cho‘kib ketishida o‘zi sababchi bo‘ladi. Biz ham agar Bolalar adabiyoti sohasidagi kamchiliklarga ko‘z yumsak, ichi puch g‘oyalarga liq to‘la ijod namunalarini qabul qilsak, ommaga havola etsak, Bolalar adabiyotini o‘z qo‘limiz bilan muzlatgan bo‘lamiz. So‘ngida bu millat ruhiyatining salbiy ahvolga kelib qolishiga sabab bo‘ladi. Ishonamanki, yangi

iste’dodlar o’z ustida ishlasa, aytib o’tilgan ustozlar asarlari bilan yaqindan tanishib, o’z ustida ishlasa bu kabi muommolarni tezda bartaraf qiladigan mustahkam kuch bo’lamiz!

Foydalanilgan adabiyotlar:

Mamasoli Jumaboyev (2008. “O’qituvchi” nashriyot-matbaa uyi) “BOLALAR ADABIYOTI” darslik-majmua.

Bashorat Jumayeva (2019. Toshkent) “O’zbek Bolalar Adabiyoti” o’quv qo’llanma (10-18-bet)

Durposhsho Hudoynazarova (2023. “Xorazm yoshlari” nashriyot-matbaa uyi) “Vitaminli kino”